

## PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

### TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklar va ularni mevasidan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda qodoqlangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

Tarkibi: Qalampir yalpiz (*Méntha piperíta L.*), Oddiy tog‘rayhon (*Oríganum vulgáre L.*), Dorivor valeriana (*Valeriána officínális L.*), Brusnika barglari (*Folium Vitis idaea L.*), Oddiy toshcho‘p (*Thýmus serpyllum L.*), Arslonquyruq (*Leonúrus L.*), Qizil dulana (*Crataegus sanguinea*).

### PREPARATNING TA‘SIRI

Markaziy asab tizimining faoliyatini yaxshilaydi, vegetativ asab tizimi faoliyati buzilishlarini bartaraf etishga yordam beradi, organizm ruhiy-hissiy bardoshlilikini oshiradi, uyqu tartibini yaxshilaydi, stress vaziyatlarda xotirjamlikni saqlashga xizmat qiladi, immunitetni mustahkamlaydi va organizm himoya kuchlarini oshiradi.

### QO‘LLANILISHI

- Markaziy va vegetativ asab tizimlari funksional buzilishlarida;
- Uzoq davom etuvchi stress holati, kuchli aqliy va emotsional zo‘riqishlarda;
- Asabiylik, emotsional muvozanatsizlik holatlarida;
- Surunkali charchoq, zo‘riqishda;
- Uyqu buzilishida;
- Kardionevrozda;
- Psixosomatik buzilishlarida;
- Klimakterik sindromda.

### QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparat bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik.

### QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

3 yoshdan katta bolalarga	Kattalarga
1 tabletkadan kuniga 3 mahal.	1-2 ta tabletkadan kuniga 3 mahal.
Statsionar sharoitda qo‘shimcha tinchlantiruvchi vosita sifatida 1 tabletkadan kuniga 3 mahal tavsiya etiladi.	

Preparat ovqatlanishdan 10-15 daqiqa avval qabul qilinadi.

Surunkali kasalliklarda davolanish davri odatda 20 – 30 kunni tashkil etadi.

Zarurat tug‘ilganda qayta davolash kursi belgilanadi.

### NOJO‘YA TA‘SIRI

Odatda nojo‘ya ta‘siri yuzaga kelmaydi, ko‘pgina holatlarda preparatning yaxshi ta‘siri kuzatilgan. Preparatning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yakka tarzda uchraydigan yuqori ta‘sirchanlik holatlarida allergik reaksiyalar va oshqozon-ichak traktidagi dispepsik buzilishlar

bulishi mumkin.

Preparatga yuqori sezuvchanlik holati kuzatilsa, preparatni qo'llashdan to'xtash kerak.

#### **PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI**

Naturosed preparatini me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

#### **BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI**

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri aniqlanmagan.

#### **SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATLARI**

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2°S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlash muddati – 2 yil.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: [info@anfa.uz](mailto:info@anfa.uz), [www.anfa.uz](http://www.anfa.uz)